

ADABIY TA'LIMDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH

*Namazova Sevinch Abdihalim qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Sh.Raxmatullayeva*

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy asar matni ustida ishslash, asarning mazmunini tahlil qilish, savollar asosida tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish jarayonlari bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: badiiy asar, obraz, asar mazmuni, so'z;

Adabiyot o'qitishda badiiy asar matni ustida tizimli ishslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot so'z san'atidir, shu sababli ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Bu bilan o'quvchi voqeа-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Adabiyot fani milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini bilish asosida o'quvchining ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantiradi hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiatini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchining ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.¹ Demak, adabiy ta'limda badiiy asar matni ustida ishslash adabiyotshunoslik va tilshunoslik jarayonlarida juda muhim o'rin tutadi. Badiiy asar, nafaqat uning mazmuni, balki tuzilishi, tili, uslubi, va muallifning san'ati kabi jihatlar orqali o'rganiladi. Badiiy asar matni ustida ishslashda quyidagi asosiy qadamlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Matnni o'qish va tushunish. Matnni o'qish – badiiy asarni o'rganish jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Avvalo, matnning umumiyligi mazmuni, asosiy g'oyasi, voqealar rivoji, xarakterlar, vaqt va makon kabi jihatlar aniqlanishi kerak. Shuningdek, matnning haqidagi umumiyligi shakllantirish zarur.

2. Matnning badiiy tuzilishini tahlil qilish. Matnning badiiy tuzilishi uning san'ati va xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayonda asarning

¹Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Ona tili. 2020.

kompozitsiyasi, ya'ni boshqarish va voqealar ketma-ketligi aniqlanadi. Qahramonlar va ularning xarakterlari o'rganiladi. Badiiy tasvirlar va ramzlar haqida ma'lumotlar beriladi.

3. Tili va uslubi ustida ishlash. Matn tili va uslubi badiiy asarni o'rganishda muhim omil hisoblanadi. Tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish muhim: matnda ishlatilgan so'zlar, sinonimlar va antonimlar, frazeologizmlar aniqlanadi.

- gaplar tuzilishi, sintaktik qurilishlarning xilma-xilligi o'rganiladi.
- metafora, metonimiya, taqqoslash, mubolag'a sinekdoxa kabi stilistik vositalar tahlil qilinadi.

Asar tahliliga oid barcha mashg'ulotlarda shu asar tiliga ham turli yo'l bilan to'xtalib boriladi. Qahramonlarni o'rganishda ham, reja tuzish yoki xarakteristika berishda ham, asar kompozitsiyasini o'rganish yoki uning mazmuni va maqsadini aniqlashda ham asarning poetik tiliga murojaat qilmay, uni o'rganmay turib nariga o'tib bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay, yozuvchining badiiy mayoratini o'rganish, matn mohiyatini to'liq tushunish uchun asar tilini o'rganish yuzasidan alohida darslar o'tkazish lozim bo'ladi. Bu maxsus darslardan kuzatiladigan asosiy maqsad – fikrni ifodalashdagi poetik tilning vazifasi va o'rnni, ahamiyatini, shuningdek yozuvchining o'z fikrini ifodalashdagi nutq boyligini ko'zdan kechirishdir. Asar tilini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulot asar tahlili yuzasidan o'tkaziladigan bir qancha mashg'ulot turlariga nisbatan ancha murakkabdir.

4. Badiiy asar va ijtimoiy muhit o'rtasidagi bog'lanish. Badiiy asar, uning yaratilgan davri va ijtimoiy sharoiti bilan bog'liq holda o'rganilishi kerak. Muallifning dunyoqarashi, ijtimoiy, siyosiy va madaniy ta'sirlar badiiy asarga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qilish zarur.

5. Tanqidiy tahlil. Badiiy asar ustida ishlashda tanqidiy yondoshuvni qo'llash muhimdir. Tanqidiy tahlil asar haqidagi shaxsiy fikr va baholarni shakllantirishga yordam beradi. Bu o'rganish jarayonida matnning kuchli va zaif tomonlarini, muallifning maqsadlarini va yondashuvlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

6. Badiiy asarning o'quvchilarga ta'sirini baholash. Badiiy asar o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganish zarur. Ularning hissiyotlari, fikrlari va mulohazalari matnning muvaffaqiyatini ko'rsatadi. Matnning o'quvchilarni qanday ruhiy holatga solishi, ularning fikrini qanday shakllantirishi ham tahlil qilinadi.

Badiiy asar matni ustida ishlashning asosiy maqsadi matnning mazmuni, shakli va san'ati haqida chuqur tushuncha hosil qilishdir. Bu jarayon o'quvchilarga nafaqat badiiy asarlarni yaxshiroq tushunishga, balki ular bilan bog'liq tarixiy, madaniy va ijtimoiy dalillarni ham o'rganishga imkon beradi.

Demak, badiiy asar mazmunini teran anglash va adabiy savodxonlikni shakllantirish uchun adabiyot darslarida o'quvchilarga badiiy asar matn ustida tizimli

ishlash haqida nazariy tushunchalar o‘rnii bilan zarur miqdorda taqdim etib borilsa, ta’lim samaradorligi oshib boradi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Ona tili. 2020.
2. Yo‘ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1997. – 77-b.
3. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. O‘qituvchilar uchun metodik ko‘llanma. – T.: O‘qituvchi. 1996. 9-b.
4. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 30-b.